



## O‘ZBEK TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Safarova R.A

*O‘zbek tili ta’limi fakulteti 3-bosqich talabasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o‘zbek tili darsligini turli zamonaviy yondashuvlar asosida olib borish usullari ko‘rsatilgan, shu bilan birga o‘quvchilarda o‘zbek tilini o‘qitishda elementar bosqichdan, ya’ni oddiydan murakkabiga tomon borish usullari asosida o‘tish metodikasi ko‘rsatib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Zamonaviy yondashuv, aqliy izlanish, loyihalashtirish, elementar bosqich, nazariya, natija, xulosa.*

## СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД К УРОКАМ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

**Аннотация:** *В данной статье показаны методы обучения узбекскому языку, основанные на новых современных методах, одновременно показаны методы перехода от элементарного этапа, то есть от простого к сложному, в преподавании узбекского языка, в виде методологии перехода. указано.*

**Ключевые слова:** *современный подход, интеллектуальное исследование, проектирование, элементарный этап, теория, результат, вывод.*

Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu maktab hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda zamonaviy, ilmi, malakali kadrlar tayyorlash yoshlarni yuksak ma’naviyat egalari sifatida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratgan edilar. Mamlakatimizda so‘ngi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Prezidentimiz ta’kidlagandek, “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkonini beradi.”

Hozirgi zamon sharoitida darslarni o‘qitishning yangi zamonaviy yondashuv texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy yondashuvlarning xislati shundaki, unda qo‘yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o‘quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

O‘zbek tili darsini zamonaviy yondashuv orqali so‘zlar vositasida turli o‘yinlar tashkil qilinadi. Maqsad o‘quvchilarning so‘z boyligini boyitish hamda fikrlash doirasini yanada kengaytirishdir. Bunday o‘yinlar qisqa vaqtga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quvchilarni guruh bo‘lib mashq qilishga odatlantiradi. Bunday usullarga o‘zbek tiliga oid tashkiliy o‘yinlar: “Rasmi test kartochkalari”, “Mavzuga mos krossvordlar yechish” va boshqalarni kiritish mumkin.



Dars jarayonida o‘zbek tilini zamonaviy yondashuv orqali o‘yinlarning muntazam ravishda qo‘llanishi o‘zbek tili fanini o‘rgatishni elementar bosqichdan murakkabiga qadar bo‘lgan yo‘lni sezilarli darajada osonlashtirib, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.

O‘zbek tili darsligini zamonaviy yondashuv orqali o‘rgatishda maktablarda ko‘plab muammolar kelib chiqmoqda. Asosiy muammolar o‘qituvchining o‘quvchiga yangi zamonaviy yondashuvdagi darslikni yetirib bera olmayotganidan kelib chiqmoqda. Yangilangan darsliklar yangicha zamonaviy mashqlar o‘quvchilarning nutqini oshirishga qaratilgan. Zamonaviy darsliklarda qo‘yilgan tinglab tushunish mashqidan foydalanmasdan boshqa mashqlarni bajarishni ma‘qul ko‘rayotgan o‘qituvchilar ham afsuski uchrab qolmoqda. O‘zbek tili darsini o‘quvchilar tinglab tushunish orqali o‘rganishi zarur bo‘lgan bir paytda tinglab tushunish mashqlari bajarilmayapti. Asosiy muammolar shundan kelib chiqmoqda. O‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqish o‘quvchilarda susaymoqda.

O‘zbek tili darsining zamonaviy yondashuv orqali olib borilishi inson shaxsini har tamonlama kamol toptirish uchun xizmat qilmoqda. O‘z kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishda, o‘z xalqining an‘analariga iftixor hissini kamol toptirishda “O‘zbek tili” darslarining o‘rni beqiyos.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili fanining chuqur o‘zlashtirilishi zamonaviy pedagog foydalanadigan interaktiv metodlar, kompyuter texnologiyalaridan oqilona foydalanish, zamonaviy yondashuv orqali darsni olib borish o‘zbek tilini yanada puxta, oson va tez o‘zlashtirish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xalq ta‘limi jurnali 2015-yil 5-son.
2. Til va adabiyot ta‘limi jurnali 2019-yil 1-son 16-bet.
3. Amanlikova N “Ta‘lim jarayonida o‘zbek tili darslariga qo‘yiladigan talablar” (2023) 36-bet.